

TRANSPORT XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

Pirniyazova Gulzira Jamalovna

Qoraqalpoq davlat universiteti Umumiqtisodiy fanlar kafedrası o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7315712>

Annotatsiya. Ushbu maqolada transport xizmatlarini takomillashtirish uchun olib borilayotgan ishlar va ularning samaradorligi haqida fikrlar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: avtotransport xizmatlari, transport vositasi, avtomobil, samaradorlik ko‘rsatkichi, tashish sifati, bahosi.

ПУТИ УЛУЧШЕНИЯ ТРАНСПОРТНЫХ УСЛУГ

Аннотация. В данной статье описаны работы, проведенные по улучшению транспортных услуг и их эффективности.

Ключевые слова: автотранспортные услуги, транспортное средство, автомобиль, показатель эффективности, качество перевозки, цена.

WAYS TO IMPROVE TRANSPORT SERVICES

Abstract. This article describes the work carried out to improve transport services and their effectiveness.

Keywords: auto transport services, vehicle, car, efficiency indicator, transport quality, price.

KIRISH

Mamlakatimizning qisqa va o‘rta muddatli rejalashtirishga yangicha yondashuvi, mohiyatiga ko‘ra, Respublikamizda davlat hamda jamiyat rivojlanishi strategiyasiga nisbatan mutlaqo yangi milliy qarashlar asosi shakllantirilayotganidan dalolat beradi. Binobarin, davlat qurilishi, sud- huquq tizimini takomillashtirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish hamda ijtimoiy sohani rivojlantirish, millatlararo do‘stlik va hamjihatlikni mustahkamlash bo‘yicha eng dolzarb vazifalar aniq belgilab berilayotgan Harakat strategiyasi mamlakatimizni keyingi besh yilda isloh qilishning “yo‘l xaritasi”ga aylandi. Transport xizmatlari bozoridagi raqobatbardoshlik masalalarini tadqiq etishga bag‘ishlangan izlanishlar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, hozirgi kunda ushbu masala ilmiy-amaliy dolzarblikka ega bo‘lib, transport xizmati ko‘rsatish sub’ektlarining marketing faoliyatida sinchkovlik bilan tahlil qilinishini taqozo etadi.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Transport korxonalarining raqobatbardoshligi deganda, mijozlar uchun tashish sifati, bahosi va boshqa sifatleri bo‘yicha raqobatchilaridan jozibaliroq transport xizmatlarini ko‘rsatish qobiliyati tushuniladi. Raqobatbardoshlikning asosiy ko‘rsatkichlari sifatida quyidagilarni keltirib o‘tish mumkin:

- tashishga bo‘lgan talab va taklifning muvozanati;
- transport xizmati ko‘rsatish sifati;
- tashish xarajatlari va daromadlari nisbati;
- ko‘rsatilayotgan transport xizmatlari turlari;
- transport korxonasining resurs salohiyati va boshqalar.

Transport xizmatlari bozorini marketing nuqtai-nazaridan tadqiq etish raqobatbardoshlikni o‘rganishni ko‘zda tutadi. Bunda raqobatbardoshlik darajasi va intensivligini aniqlash hamda unga ta’sir etuvchi bozor omillarining tahlili amalga oshiriladi.

Ushbu vazifalarni bajarishning asosiy bosqichlari quyidagilardan iboratdir:

- bozorda raqobat muhitini o‘rganish;
- korxonalarda marketing boshqaruvi samaradorligini baholash;
- marketing qarorlarining axborot ta‘minoti samaradorligini tahlil etish;
- olingan natijalarni taqqoslash va tegishli xulosa va tavsiyalarni ishlab chiqish.

Raqobatbardoshlikni tadqiq etishning dastlabki bosqichida keyinchalik raqobatbardoshlik strategiyasini tanlashda zarur bo‘ladigan axborotlarni yig‘ish, qayta ishlash, qismlarga ajratish va tahlil etish ishlari bajariladi. Yig‘ilgan axborotning to‘liqligi, ishonchligi, taqqoslashga moyilligi, to‘g‘riligi va sifati marketing tahlilining samaradorligini belgilaydi. Transport xizmatlari bozoridagi raqobatbardoshlikni marketing nuqtai-nazaridan tahlil etishning muhim bosqichi – bu transport xizmatlari bozorining raqobatbardoshlik jaraenlariga bog‘liqlik darajasini baholash hisoblanadi. Bu tarzda baholash raqobatbardoshlik intensivligiga ta‘sir etuvchi omillarni tahlil qilish orqali amalga oshiriladi, xususan:

- transport xizmatlari bozorida faoliyat yurituvchi tashuvchilarning tarmoq ichi raqobati;
- transport xizmatlari bozorida o‘rinbosar sanaluvchi xizmatlar raqobati;
- salohiyatli raqobatchilarning mavjudligi va ta‘siri;
- iste‘molchilarning o‘z nuqtai-nazari va bozorga ta‘siri.

Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, sanab o‘tilgan omillarning har bir guruhi ma‘lum bir kuchga ega bo‘lib, transport xizmatlari bozorining rivojlanish modeliga turlicha ta‘sir ko‘rsatadi. O‘z navbatida, mazkur omillar majmuining ta‘sirini yig‘ma baholash transport xizmatlari bozoridagi raqobatbardoshlik kurashini tavsiflash bilan birga, transport xizmatlari ko‘rsatuvchi sub‘ektlarning transport biznesidagi reytingi va muvaffaqiyatini belgilab beradi.

TADQIQOT NATIJALARI

Bugungi kunda transport korxonalarini raqobatbardoshligini baholashdagi muammolarning asosiylaridan biri - ularning, mijozlarning, shuningdek, investorlarning korxonaga mavqei va imkoniyatlarini baholash bo‘yicha zamonaviy uslubiy ta‘minot bilan etarli darajada ta‘minlanmaganligidir.

Yuqori darajadagi risk sharoitida marketing dasturlarini bunday uslubiy ta‘minotsiz amalga oshirishda ko‘zda tutilgan natijalarga erishish mumkin emas. SHuning uchun transport korxonalarini holatini baholash bo‘yicha uslubiy ta‘minotni ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biri hisoblanib, bu transport xizmati ko‘rsatuvchi korxonalariga kapital qo‘yilmalar samaradorligini oshirish va raqobatbardosh transport xizmati bozorini shakllantirishni ta‘minlaydi.

Ushbu uslubiyot quyidagi asosiy ko‘rsatkichlarni baholashni o‘z ichiga oladi:

- korxonadagi asosiy vositalar va aktivlarni baholash;
- transport xizmati ko‘rsatishning potensial imkoniyatlarini baholash; – korxonaning mahalliy transport xizmati ko‘rsatish bozoridagi ulushi; – korxonaning moliyaviy holati;
- transport xizmati raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha marketing strategiyalarini ishlab chiqish;

– Ma‘lumki, korxonaning moliyaviy holati tahlil qilinganda hisobot davridagi moliyaviy holat va uning o‘zgarishini umumiy bahosi, korxonaning moliyaviy barqarorligi, ish yuritish faoliyati, to‘lov qobiliyati va boshqa ko‘rsatkichlar tahlil qilinadi. SHuningdek, moliyaviy ahvolni har tomonlama tahlil etishda solishtirma moliyaviy koeffitsientlar ishlatiladi.

– Bular ayrim yalpi ko'rsatkichlarni boshqalariga nisbati sifatida hisoblanadi va kompaniyaning moliyaviy ahvolini ko'rsatib beradi.

Bu ko'rsatkichlar moliyaviy ahvolni raqamlar bilan ifodalashda, kompaniyani boshqa turdosh korxonalar bilan yoki tarmoqdagi o'rtacha ko'rsatkichlar bilan solishtirishda, ko'rsatkichlardagi o'zgarishlar tendensiyasini aniqlashda va korxonalar rivojlanish mezonlari hamda chegaraviy me'yorlarni belgilashda keng qo'llaniladi. Bugungi kunda moliyaviy koeffitsientlar asosida korxonalar moliyaviy holatini baholash bo'yicha yetarlicha usul va uslublar ishlab chiqilgan bo'lib, ular har qanday tarmoq korxonalar uchun «universal» tarzda amaliyotda keng qo'llanilmoqda.

MUHOKAMA

Transport korxonasining xizmatlar bozoridagi raqobat darajasi va mavjud ko'rsatilayotgan xizmatlar raqobatbardoshligi, transport infratuzilmalarining innovatsion rivojlanish darajasi va texnik xizmat ko'rsatish, ehtiyot qismlar, yoqilg'i-moylash materiallari va boshqa energoresurslarni ishlab chiqaruvchi yoki etkazib beruvchi sub'ektlar o'rtasidagi raqobat, transport xizmatiga iste'molchilar talabining barqarorligi, yangi transport turlaridan foydalanish hamda zamonaviy texnologiyalarni joriy eta olish imkoniyatlari masalalarini ham o'z ichiga oladi.

Jahon iqtisodiyotidagi raqobatbardosh ustunlikning asosiy omillari, quyidagilardir:

- mahsulot va xizmatlar sifatidagi yetakchilik;
- xarajatlar bo'yicha yetakchilik;
- strategik e'tibor.

Transport korxonalarini o'zlarini mavjud va potensial xaridorlar oldida o'ziga xos bo'lgan yagona mahsulot sifatida belgilaydigan xizmatlar bozorida joylashishni anglatadi. Strategik yo'nalish firmaning ma'lum strategik sohasiga yo'naltirilgan e'tiborni qaratib, jahon bozorining bir yoki bir nechta segmentlarida raqobatbardosh ustunlikka erishish istagini anglatadi.

XULOSA

Bu muhim omillardan har qanday raqobatchi foydalanishi mumkin, shuning uchun muvaffaqiyatli ishlash global kompaniya sifatini, xarajatlarni, farqlarni va yo'nalishni strategik yo'nalishlarda doimo yangi yondashuvlar va innovatsion g'oyalarni joriy qilishlari kerak.

REFERENCES

1. B. A. Xo'jaev Avtomobillarda yuk va passajirlar tashish asoslari.-T.: O'zbekiston, 2016.- 239 b.
2. Azizov K.X. Harakat xafsizligini tashkil etish asoslari.- T.:Fan va texnologiyalar, 2019.- 244 b.